

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR**  
**BERUVCHI DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**  
**UDK: 338.45:677:330.34(575.1)**

**MADRAXIMOVA GULASAL RO‘ZIMBOY QIZI**

**TO‘QIMACHILIK SANOATI TARMOG‘INI IQTISODIY**  
**RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish  
uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy maslahatchi: Iqtisodiyot fanlari**  
**doktori, professor G.Q.Abduraxmonova**

**Toshkent – 2024 yil**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I BOB. SANOAT TARMOQLARINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b>	<b>4</b>
Ошибка! Закладка не определена.	
1.1. Sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rivojlantirishning nazariy asoslari.....	16
1.2. To‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimi.....	23
1.3. To‘qimachilik tarmog‘ini iqtisodiy rivojlanishining rivojlangan davlatlar tajribasi .....	31
1.4. Tejamkor ishlab chiqarish (Lean production) asosida tarmoqni iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlari .....	47
<b>I BOB BO‘YICHA XULOSALAR .....</b>	<b>56</b>
<b>II BOB. TO‘QIMACHILIK TARMOQLARINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI .....</b>	<b>58</b>
2.1. To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning uslubiy ta’minoti .....	58
2.2. To‘qimachilik sanoati resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasini shakllantirish uslubiyoti .....	69
2.3. To‘qimachilik sanoatini samarali rivojlantirishning konseptual modeli .	82
2.4. To‘qimachilik tarmog‘ining raqobatbardoshlik va rivojlanish darajasini baholash uslubi.....	92
<b>II BOB BO‘YICHA XULASALAR .....</b>	<b>101</b>
<b>III BOB. O‘ZBEKISTONDA TO‘QIMACHILIK TARMOQLARINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH TENDENTSIYALARI.....</b>	<b>103</b>
3.1. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati tarmog‘i faoliyatining zamonaviy holati va tendensiyalari.....	103
3.2. To‘qimachilik tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirishda investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish .....	115
3.3. To‘qimachilik tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirishda forsayt va benchmark tahlillaridan foydalanish .....	132
3.4. To‘qimachilik sanoatini rivojlanishidagi to‘siqlarni aniqlash.....	143

<b>III BOB BO'YICHA XULOSALAR .....</b>	<b>155</b>
<b>IV BOB. TO'QIMACHILIK TARMOQLARINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH METOTOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ..</b>	<b>158</b>
4.1. To'qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirish yo'nalishlari .....	158
4.2. To'qimachilik sohasi investitsion jozibadorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari .....	172
4.3. To'qimachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish.....	182
4.4. To'qimachilik tarmog'ining asosiy ko'rsatkichlarini modellashtirish va prognozlash.....	192
IV bob bo'yicha xulosalar .....	208
<b>XULASA .....</b>	<b>210</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>213</b>

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoati eng qadimgi va an’anaviy sohalardan biri bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kungacha to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish ma’lum darajada yetarlicha o‘rganilmagan. “Jahon to‘qimachilik bozorining global hajmi 2023-yilda 1,837.27 milliard AQSH dollarini tashkil etgan shundan 52,2 foizi Xitoy, 6,9 foizi Hindiston, 5,3 foizi AQSH va 1,9 foizi Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. 2024-yildan 2030-yilgacha jahon to‘qimachilik bozorining global hajmi (CAGR) 7,4 foizga o‘sishi kutilmoqda”<sup>1</sup>. To‘qimachilik mahsulotlariga talab yildan yilga ortib borishi, to‘qimachilik sanoat tarmog‘ini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish tizimini takomillashtirish va ularni joriy etilishini ta’minlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Jahonda to‘qimachilik sanoati iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda amalga oshirilgan. Xususan, Balanced Scorecard (BSC) Balanslangan ko‘rsatkichlar tizimi, (KPI- key performance indicators) Eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari, Forsight va Benchmark texnologiyalari, “Lean production” tejamkor ishlab chiqarish, (SMED (Single Minute Exchange of Dies – dastgohlarni tezkor sozlash), 5 S tizimi, jami ishlab chiqarishning texnik holati tahlili (total productive maintenance, TPM)) tizimini joriy etish, RP (Resource Planning – recurclarni rejalashtirish), ERP (Enterprise Resource Planning – korxonalarini rejalashtirish), CSRP (Customer Synchronized Resource Planning – resurslarni mijozlar bilan sinxron rejalashtirish) kabi konsepsiyalarni to‘qimachilik korxonalarida qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmog‘i sifatida to‘qimachilik tarmog‘ining sifat jihatidan jadal rivojlantirish yuzasidan keng qamrovli va maqsadli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga

---

<sup>1</sup> <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/textile-market>

mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning 3-bandiga ko'ra, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olingan bo'lib, ushbu vazifalar sohani istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi<sup>2</sup>. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda sanoat tarmog'i xususan, to'qimachilik tarmog'i faoliyatini baholashni takomillashtirishni taqozo etadi.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi 1-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-71-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 2-sentyabrdagi "To'qimachilik sanoatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-155-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi 14-dekabrdagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5285-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4186-sonli Qarori mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>. Sanoat**

---

<sup>2</sup> 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taqqiyot strategiyasi [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/20222026\\_yillarga\\_muljallangan\\_yangi\\_uzbekistonning\\_taraqqiet\\_strategiya\\_si\\_tasdiqlandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga_muljallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiya_si_tasdiqlandi)

<sup>3</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi:OECD G20-Report-Implementation- Corporate-Governance-Principles-2019 <https://www.oecd.org/daf/ca/G20-Report-Implementation-Corporate-Governance-Principles-2019.pdf>; Savard, K., Wickramarachi, H., Devol, R. C., & Prabha, A. (2013). Global opportunity index: Attracting foreign investment. Milken Institute Report; A Corporative Study of Investment Attractiveness of Nations and Regions // Singapore Management University, 2000; Stokov, A. I. (2014). The methodological aspects of assessing the attractiveness of investments made into financial assets and real projects. Life Science Journal, 11(10), 682-686; Kun, Y., & Zhang, Z.

tarmoqlarini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish masalalari jahonning yetakchi ilmiy-innovatsion o‘quv markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Massachusetts Institute of Technology, Stanford University, Harvard University (AQSH), University of Oxford, Montpellier Business School (Buyuk Britaniya), Swiss Federal Institute of Technology (Shvedsiya), Singapore Management University, National University of Singapore (Singapur), Tsinghua University (XXR), Organization for Economic Cooperation and Development (OECD), United Nations Development Programme (UNDP), Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC), World Bank, Kyung Hee University, (Koreya), Vaseda University (Yaponiya), Sankt-Peterburg iqtisodiyot va boshqaruv universiteti (Rossiya).

Jahon miqyosida sanoat tarmoqlarini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rivojlantirish darajasini baholashning yangi usullari yaratilgan (To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar xalqaro federatsiyasi — ITMF, Shveysariya); Yevropaning 20 dan ortiq mamlakatlaridagi korxonalar uchun to‘qimachilik mahsulotlarini sotishning samarali innovatsion siyosati ishlab chiqilgan (To‘qimachilik tarmog‘i Yevropa konfederatsiyasi — EURATEX, Belgiya); to‘qimachilik sanoatida pardozlash bo‘yicha konsalting xizmatlarini tashkil etish va u bilan bog‘liq biznes tendensiyalari prognoz qilingan (AQSH to‘qimachilik ranglar assotsiatsiyasi — CAUS, AQSH); texnologiyalarni rivojlantirishning eng yuqori oqim elementi FORSIGHT metodologiyasi ishlab chiqilgan UNIDO tashkiloti AQSH (the United Nations Industrial Development Organization) the United Nations Industrial Development Organization); innovatsion kompaniyalar faoliyati

---

(2011, January). Study on type identification and policies of foreign investment attractiveness of provinces in China based on principal component analysis. In MSIE 2011 (pp. 726-730). IEEE. Baums, T. (1994). Corporate governance in Germany: System and recent developments. Inst.für Handels-und Wirtschaftsrecht/Berthelot, S., Francoeur, C., & Labelle, R. (2012). Corporate governance mechanisms, accounting results and stock valuation in Canada. International Journal of Managerial Finance; Kleyner G.B. (2005). Upravleniye korporativnimi predpriyatiyami i ekonomika znaniy. Mir Rossii. Sotsiologiy. Etnologiya, 14(4); Xashimov A.A. O‘zbekistonda integratsiyalashgan korporativ tuzilmalarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. – Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiy. – T.: 2007. – 338 b; Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish: muammolar, tahlillar va natijalar. Monografiy. – T.: 2021. – 232 b.

samaradorligini baholash usuli ishlab chiqilgan (University of Leeds, Buyuk Britaniya); yirik korporativ tuzilmalar moliyaviy menejment tizimida GAP tahlil konsepsiyasi ishlab chiqilgan (Ludwig Maximilians-Universität München, Germaniya); O‘zbekistonda paxta tolasi va to‘qimachilik mahsulotlarini jahon bozorlariga yetkazishda yuklar oqimlarini taqsimlash va istiqbolli eksport bozorini aniqlashning ekonometrik modellari va market-skriningi ishlab chiqilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston). Dunyoning yetakchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rivojlantirish amaliyotining metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari bilan sanoat korxonalarini o‘rtasidagi innovatsion hamkorlikni rivojlantirish; davlat tomonidan sanoat rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmini shakllantirish; to‘qimachilik sanoatida biznes-modellarni qo‘llash asosida rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish; qiymatni oshirishga yo‘naltirilgan strategik boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish; sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvni moliyalashtirishning davlat va xususiy sheriklik mexanizmini ishlab chiqish; sanoat korxonalarida innovatsiyalarni o‘zaro uzatilishini rag‘batlantirish; sanoat tarmoqlari faoliyatiga oid innovatsion yo‘nalishdagi startap loyihalarni amaliyotga joriy etilishini qo‘llab-quvvatlash.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sanoat tarmoqlarini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo‘yicha qator tadqiqotlarda e’tibor qaratilgan. Jumladan, sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy nazariyalari va uni boshqarishning o‘ziga xos jihatlariga uzoq xorij olimlari V.Ryugemer, L.Frederikson, G.Kerein, K.Veber, F.Karrillo, K.Klinsevich, K.Miyazaki<sup>4</sup> kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatini boshqarish, ularni baholash, strategiyalarini ishlab chiqish

---

<sup>4</sup> V.Ryugemer «Novaya texnika staroye-obshchestvo. Perevod s nemetskogo V.Ivanova. – M. Poltizdat, 1988 –252 s. <https://www.kernunternehmensnach-folge.com/weiche-faktoren-steigerung-unternehmenswertes/>

va takomillashtirishga oid izlanishlarda E.V.Yevtushenko, Z.M.Isakova, L.Kalacheva, I.Lapina, S.F.Sayfulina, L.A.Klimova, S.A.Knyazev, V.A.Pazderina, K.A.Sannikova, L.I.Shamgulova, YE.S.Belyayeva, G.B.Gorbunova, S.V.Yeremeyeva, G.I.Jits, D.I.Kokurin, T.V.Kolosova, S.V.Kochetkov, YE.A.Lyaskovskaya, L.A.Pancheva, V.N.Suyazov<sup>5</sup> kabi olimlar ishlarida aksini topgan.

O‘zbekistonda M.N.Maxmudov, M.R.Boltaboyev, SH.N.Zaynutdinov, M.A.Maxkamova, SH.I.Otajonov, N.M.Rasulov, B.A.Abdullayev, G.D.Xasanova, T.Z.Toshpulatov, I.I.Soliyev, G.B.Shanazarova, O.E.Ernazarov, G.SH.Xankeldiyevalar<sup>6</sup> kabi olimlar izlanishlarida iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish

---

<sup>5</sup> Evtushenko E.V. Otsenka innovatsionnogo potentsiala predpriyatiya//Evtushenko.E.V., Yusupova E.R.// Ekonomika i upravlenie: nauchno-prakticheskiy jurnal. - 2014. - №5(121). – S. 63-68.; Isakova, Z.M (2019) «Implementation of project management systems: conditions for implementation in the description and innovative economy,» Economics and Innovative Technologies: Vol. 2019: No. 3, Article 12. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2019/iss3/12>; L.Kalacheva, D.Savon «Innovation activities of enterprises of the coal industry to improve productivity»//Baltic Journal of Real Estate Economics and Construction Management. 2014. Vol. 2. -P.11-15; Lapiņa I. Development of managers competence model in dynamic environment. //Proceedings of the 19th World Multi –Conference on Systemics, Cybernetics and Informatics. -2015, July. 2. -P. 219-224; Sayfullina S.F. Ponyatie innovatsionnoy vospriimchivosti predpriyatiY. /Problemiy razvitiya sovremennoy ekonomiki. Sb. stat. IV Mejdunarodnoy nauchnoprakticheskoy konferensii. Stavropol, 2014. –S. 52- 56; Klimova L.A. Innovatsionnoye razvitiye predpriyatiya : [monografiya]. -Mogilev: Belarus.2017. –S.215; Knyazev S.A. Otsenka innovatsionnogo potentsiala predpriyatiY.//Vestn. Volgogr. gos. un-ta. Ser. 3, Ekon. Ekol. 2010, №1(16), -S.34; Pazderina V.A. Strategicheskoye upravleniye innovatsiyami. // Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. -2015, -№10. -S.108-112.; Sannikova K.A. Upravleniye innovatsionnim predpriyatiyem: klyucheviye ponyatiya, osobennosti, primeri. // Sovremenniye texnologii upravleniY. ISSN 2226-9339. -№2 (92). -2020-05-11; Shamgulova L.I. Metodi upravleniya innovatsionnim potentsialom. // Molodoy ucheniy. - 2019. -№4(242). -S.274-277; Belyayeva YE.S. Sovershenstvovaniye upravleniya innovatsionnoy deyatelnostyu promishlennogo predpriyatiya na osnove otsenki innovatsionnogo potentsiala: avtoref. dis. k.e.n. -Barnaul: AGU, 2007. –S.23; Gorbunov, G.B. Innovatsionniy potentsial kak faktor razvitiya sovremennogo predpriyatiya: avtoref. dis. k.e.n. -MAGMU, 2006. –S.23; Yeremeyeva S.V. Instrumenti otsenki i upravleniya razvitiyem innovatsionnogo potentsiala naukoymkogo predpriyatiya RKP. Diss. k.e.n. -Krasnoyarsk 2015. – S.130; Jits G.I. Metodologiya upravleniya formirovaniyem i effektivnim ispolzovaniyem innovatsionnogo potentsiala ekonomicheskix sistem: dis. d-ra ekon. nauk. –Saratov: SGTU, 2001. –356 s; Kolosova T.V. Obespecheniye ustoychivogo razvitiya predpriyatiya na osnove povisheniya yego innovatsionnogo potentsiala: dis. d.e.n. –Novgorod: “NNGASU”, 2011. –288 s.; Kochetkov S.V. Upravleniye razvitiyem innovatsionnogo potentsiala promishlennogo predpriyatiya: avtoref. dis. d.e.n. – SPb.: FINEK, 2011. –S.41; Lyaskovskaya YE.A. Upravleniye innovatsionnim razvitiyem predpriyatiya po pokazatelyam ustoychivosti: dis. d.e.n. – Chelyabinsk: YUUrGU, 2009. -342 s.; Pancheva L.A. Formirovaniye effektivnoy sistemi upravleniya innovatsionnim potentsialom promishlennogo predpriyatiya na prinsipax investitsionno-proizvodstvennogo menedjmenta: avtoref. dis. k.e.n. -Orel, 2006. –S.21; Suyazov V.N. Kompleksnaya otsenka effektivnosti innovatsionnogo razvitiya nauchno-proizvodstvennix organizatsiy: avtoref. dis. k.e.n. –Saratov: SGTU, 2011. –S.25.

<sup>6</sup> Maxmudov N.M., Madjidov Sh.A.”Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU 86 (2010). Boltaboyev M.R. O‘zbekison Respublikasi to‘qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasiyu Toshkent :TDIU,2005. Zaynuddinov SH.N., Rasulov N.M. Innovatsion menedjment (darslik).-T.:»Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi», 2020. -B.540.; Abdullayev B.A. Innovatsion faoliyatning boshqaruvini takomillashtirish: i.f.n. diss. Avtorefer. –T., 2002., -B. 27; Maxkamova M.A. Formirovaniye organizatsionno-ekonomicheskogo mexanizma upravleniya innovatsionnoy deyatelnostyu na promishlennix predpriyatiyax Respubliki Uzbekistan: avtoref. dis. ...d.e.n. –T.: TGTU, 2004. –S. 45; Xasanova G.D. Sanoat korxonalarini innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish: i.f.n., diss. avtorefer. –T., BuxDU, 2006, - B.26; Otajonov SH.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish: i.f.d. (DSs) diss. avtorefer. –T.: TDIU, 2018, -B.95; Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirish: (DSc) diss. avtorefer. –T., 2021, -B.81; N.K.Yo‘ldoshev, G.E.Zaxidov. Menejment: o‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston milliy faylasuflari jamiyati, 2018. – 392 b.; Toshpulatov T.Z. Razvitiye innovatsionnoy deyatelnosti v promishlennosti Respubliki Uzbekistan: avtorefer. dis... k.e.n. –T.: Institut ekonomiki AN RUz., 2004, -S.24; Soliyev I.I.



yoʻliga oʻtkazish, jumladan, sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini boshqarishda inson omilining rolini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarolib borilgan.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan olimlar toʻqimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish va faoliyatni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, korxonalar iqtisodiy resurslar salohiyatidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, toʻqimachilik sanoati faoliyatni rivojlantirishga oʻz hissalarini qoʻshganlar. Biroq, sanoatning toʻqimachilik tarmogʻini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishga bagʻishlangan nazariy-amaliy masalalar kompleks tarzda, tizimli oʻrganilmagan. Tadqiqot ishida sanoatning toʻqimachilik tarmogʻi faoliyatini rivojlantirish, uni takomillashtirish, jumladan, tarmoqning investitsion jozibadorligini baholash baholash, rivojlantirishga taʼsir etuvchi omillarni baholash, resurslar salohiyatidan foydalanish darajasini baholash koʻrsatkichlari eʼtiborga olingan boʻlib, tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi hamda unda hal etiladigan masalalar doirasini belgilashga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim yoki ilmiy- tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oʻzbekistonda investitsiya fondlarining oʻziga jalb etish mexanizmini ishlab chiqish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** toʻqimachilik tarmogʻini iqtisodiy jihatdan rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rivojlantirishning nazariy jihatdan tadqiq etish;

sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi omillarning tasnifiy guruhlanishini ilmiy tadqiq etish;

---

Razvitiye innovatsionnix protsessov v sfere svyazi i informatizatsii Uzbekistana: avtorefer. dis... k.e.n. –T.: Institut ekonomiki AN RUz, 2010, -S.23, Shanazarova B.G. Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: PhD diss. avtor.. –T.: 2018. –B.56; Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish: PhD diss. avtor.. –T.: 2020. –B.60.

to‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning uslubiy ta‘minotini ishlab chiqish;

to‘qimachilik sanoati resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasini shakllantirish uslubiyotini ishlab chiqish;

to‘qimachilik sanoatini samarali rivojlantirishning konseptual modelini ishlab chiqish;

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati tarmog‘i faoliyatining zamonaviy holati va tendensiyalari tahlilini ishlab chiqish;

to‘qimachilik tarmog‘ini rivojlantirishda investitsion imkoniyatlaridan foydalanish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

to‘qimachilik tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirishda forsight va benchmark tahlillaridan foydalanishni takomillashtirish;

to‘qimachilik tarmoqlarini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish;

to‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash;

sanoat tarmog‘ini rivojlanish strategiyasi va tarmoqni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ustuvor jihatlariga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi va uning tarkibiga kiruvchi to‘qimachilik korxonalari faoliyati tanlab olingan.

**Tadqiqot predmeti** bo‘lib, to‘qimachilik tarmog‘ini rivojlantirish jarayonlarni tashkil etishda yuzaga keladigan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash, ekonometrik tahlil va prognozashtirish usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sanoat tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va

mahsulot sifatini yaxshilash jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning xususiyati va mezonlari bo'yicha turkumlash asosida takomillashtirilgan;

to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligi va rivojlanish darajasini baholash uslubiyoti mazkur jarayonlarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning integral ta'sirini hisobga olgan holda "juda past" (0,00-0,54) "past"(0,54-0,65), "o'rta darajada" (0,65-0,75), "yuqori darajada" (0,75-0,9), "juda yuqori darajada" (0,9-1,0) miqdoriy chegaralarni belgilash asosida takomillashtirilgan;

to'qimachilik tarmog'i samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari mezonlari asosida investitsion jozibadorlik darajasi jihatidan "investitsion jozibadorligi past" [0,0 - 2,0], "investitsion jozibadorligi pastdan yuqori" [2,0 - 4,0], "investitsion jozibadorligi o'rta darajada" [4,0 - 6,0], "investitsion jozibadorligi o'rta darajadan yuqori" [6,0 - 8,0], "investitsion jozibadorligi yuqori darajada" [8,0-10,0] shkalalar asosida guruhlash orqali har bir muayyan korxonalarni investitsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish asoslangan;

to'qimachilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmi tarmoq faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ( $I = 0,29$ ), yangi mahsulotlar yaratish ( $YM = 0,21$ ), ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish ( $T = 0,27$ ) va bozor ehtiyojlariga moslashuvchanlikni oshirish ( $EM = 0,23$ ) omillarining maqbul nisbati asosida takomillashtirildi;

O'zbekiston to'qimachilik sanoati tarmog'ini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillari o'rtasida bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga qadar mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sanoat tarmog'ini iqtisodiy tushunchasining iqtisodiy mazmuni sanoat tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillar guruhlarga ajratilib, tarkibiy qismi va ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan;

to'qimachilik sanoatining raqobatbardoshligi va rivojlanish darajasini baholash reyting mezonlari ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoat tarmog‘ining iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib hozirgi holati va tarkibiy dinamik o‘zgarishlari statistik usullar asosida baholab berilgan;

to‘qimachilik sanoat tarmog‘i iqtisodiy rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni tanlashning samarali yondoshuvlari va ularning ta’siri ekonometrik modellashtirilib, konseptual model ishlab chiqilgan;

to‘qimachilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, yangi mahsulotlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va bozor ehtiyojlariga moslashuvchanlikni oshirish omillari asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi iqtisodchi olimlarning sanoat tarmoqlarini iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning asoslanganligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, to‘qimachilik tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirishga oid yondashuvlarning ishlab chiqilishi, rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar xususiyatlari asoslab berilishi, tarmoqni rivojlantirish modelining ishlab chiqilishi, to‘qimachilik tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha bo‘yicha yondashuvlarning ishlab chiqilishi iqtisodiyotning globalashuvi sharoitida to‘qimachilik tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirishda ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Respublikamizdagi to‘qimachilik tarmog‘i korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish jarayonlarni asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqishda, to‘qimachilik tarmog‘ining istiqbol ko‘rsatkichlarini asoslashda keng foydalanish hamda “Sanoat iqtisodiyoti”, “Innovatsion iqtisodiyot”, “Sanoat iqtisodiyoti va strategiyalari”, “Sanoat klasterlari”, “Tarmoqlar iqtisodiyoti”kabi fanlardan o‘quv qo‘llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida

foydalanishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** To‘qimachilik tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sanoat tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash jarayoniga ta’sir etuvchi omillarning xususiyati va mezonlari bo‘yicha turkumlash asosida takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Sanoat iqtisodiyoti” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19-iyundagi 233-sonli buyrug‘i) to‘qimachilik sanoatining raqobatbardoshligi va rivojlanish darajasini baholash uslubiyati mazkur jarayonlarga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarning integral ta’sirini hisobga olgan holda “juda past” (0,00 - 0,54), “past” (0,54 - 0,65), “o‘rta darajada” (0,65 - 0,75), “yuqori darajada” (0,75 - 0,9), “juda yuqori darajada” (0,9 - 1,0) miqdoriy chegaralarini belgilash asosida takomillashtirish taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi “Yustex” hamda “Textile Fashion” MCHJlari faoliyati baholanib “To‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish dasturi” ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 29-avgust kungi №03/25-2298-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonaning raqobatbardoshligi va rivojlanish darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichi “Yustex” MCHJ da 0.57 ga, “Textile Fashion” MCHJ 0.61 ga tengligi hamda rivojlanish darajasini baholashning quyi, o‘rta, yuqori darajadagi mezonlari aniqlangan;

tarmog‘idagi samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari mezonlari asosida investitsion jozibadorligi darajasi jihatidan “investitsion jozibadorligi past” [0,0 - 2,0], “investitsion jozibadorligi o‘rtachadan past” [2,0 - 4,0], “investitsion jozibadorligi o‘rta” [4,0 - 6,0], “investitsion jozibadorligi o‘rtadan yuqori” [6,0 -

8,0], “investitsion jozibadorligi yuqori” [8,0-10,0] shkalalar asosida guruhlash orqali har bir muayyan korxonaning investitsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi “Yustex” MCHJ va “Textile Fashion” MCHJ larining “to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 29-avgust kungi №03/25-2298-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi “Yustex” MCHJ faoliyatiga jalb qilingan investitsiyalar miqdori 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 10-12 foizga oshirishga, hamda “Textile Fashion” MCHJ da 12-15 foizga oshirishga imkoni yaratilgan;

To‘qimachilik sanoati korxonalarini innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmi tarmoq faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish ( $I = 0,29$ ), yangi mahsulotlar yaratish ( $YM = 0,21$ ), ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish ( $T = 0,27$ ) va bozor ehtiyojlariga moslashuvchanlikni oshirish ( $EM = 0,23$ ) omillarining maqbul nisbati asosida takomillashtirish bo‘yicha taklif “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi “Yustex” MCHJ va “Textile Fashion” MCHJ larining “to‘qimachilik sanoati korxonalarini rivojlantirish dasturi” ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 29-avgust kungi №03/25-2298-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi “Yustex” MCHJ faoliyatiga jalb qilingan investitsiyalar miqdori 2023 yilda 2022 yilga nisbatan faoliyatiga innovatsiyalar kiritish hajmini 8-10 foizga oshirishga, hamda “Textile Fashion” MCHJ da 10-12 foizga oshirishga imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati tarmog‘ini iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida ishlab chiqilgan 2030 yilga qadar mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi faoliyatiga joriy etilgan. (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 29-avgust kungi №03/25-

2298-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida to'qimachilik tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari va prognozlari asosida uzoq muddatli davrdagi istiqbol ko'rsatkichlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashlarda 11 ta maqola, ulardan 2 ta maqola xorijiy jurnallarda va 9 ta maqola mahalliy jurnallarda, hamda 1 ta monografiya nashr etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Uning umumiy xajmi 212 betni tashkil qiladi.